

O'QUVCHILARNI BADIY ASARLAR O'QITISH ORQALI AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Rasulova Zohida Sindarovna

Buxoro innovatsiyalar universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, Prezident qarorlari va Milliy o'quv dasturi asosida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishda badiiy adabiyotning o'rni ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, umummadaniy kompetensiya, badiiy asar, o'qitish metodikasi, Milliy dastur, ta'lim islohoti

So'nggi yillarda Yangi O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish – kelgusi yil uchun dasturimizning to'rtinchi ustuvor yo'nalishidir” deya ta'kidladilar muhtaram Prezidentimiz o'z so'zlarida.[2.3] Xususan, davlat rahbari tomonidan qabul qilingan ta'limga oid qarorlar ta'lim mazmunini yangilash, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgandir. “Mening niyatim – yoshlarimiz talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha dunyoda raqobatdosh bo'lsin, kerak bo'lsa, boshqalardan bir pog'ona ustun tursin”. [2.4.] Shunga ko'ra, Yangi Milliy o'quv dasturining joriy etilishi esa ta'limda bilim berishdan ko'ra, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga ustuvor ahamiyat berilayotganini ko'rsatadi. Bu jarayonda ayniqsa axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Chunki, muhtaram Prezidentimizning quyidagi so'zlari ham juda o'rinlidir: “Hammamizga ayonki, Mirzo Ulug'bek bobomiz bundan olti asr muqaddam insoniyat uchun yulduzlar xaritasini yaratgan edi. Bugun esa biz hozirgi va kelajak avlodlarimiz uchun baxtli hayotga olib boradigan yo'l xaritasini yaratishimiz lozim”. [2.5]

Prezident qarorlarida ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish va o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish asosiy vazifa sifatida belgilangan¹⁹.

Shu nuqtai nazardan, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim tizimining markaziga qo'yildi. Umumta'lim muassasalaridagi quyidagi asosiy kompetensiyalar ajratib

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2025.26.12

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son..O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son.

ko'rsatildi. 2024-yilda O'zbekiston Respublikasining umumta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bo'lib, o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan¹. Ta'lim jarayonidagi asosiy kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

- Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: O'quvchilarning axborotlarni izlash, saralash, tahlil qilish va ulardan maqsadli foydalanish qobiliyati;

- O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi: Hayot davomida o'qish, ijtimoiy va iqtisodiy faollikni oshirish, ijodiy va ma'naviy-psixologik jihatdan o'z ustida ishlash.

- Nutqiy kompetensiya: Ona tili va chet tillarida og'zaki va yozma nutqni to'g'ri shakllantirish, muloqot qilish va ma'lumotni anglash qobiliyati.

- Kasbiy-ta'limiy kompetensiya: Ta'lim standartlariga mos ravishda bilim olish va kelajakdagi kasbiy faoliyatga poydevor yaratish.

- Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi: Jamiyatda rahbar va pedagoglar, ot-onalar bilan samarali muloqot va boshqaruvni yo'lga qo'yish, mas'uliyatni his etish.

Shaxsni rivojlantiruvchi kompetensiyalar ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Mazkur kompetensiyani rivojlantirishda badiiy adabiyot alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki badiiy asarlar inson ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, unda ma'naviy-axloqiy qarashlarni shakllantiradi, hissiy dunyoqarashi rivojlanadi, ma'naviy estetikasi shakllanadi. Shuning uchun badiiy asarlarni o'qitish jarayoni o'quvchilarda nafaqat bilim, balki quyidagi sifatlar ham rivojlanadi:

- kreativ yondoshish;
- tanqidiy fikrlash;
- estetik idrok;
- empatiya (boshqalarni tushunish qobiliyati);
- bilish jarayonlari.

Masalan, o'quvchi adabiy qahramonlar hayotini o'rganar ekan, ularning hatti-harakatlarini tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va o'z hayotiga tatbiq etadi. Bu esa shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiladi, axborotlar bilan tanishib boradi.

Dars jarayonida o'quvchilarni ertak, hikoya qahramonlari nomlari bilan rag'batlantirish ham badiiy kitob o'qishga olib keladi. Ularni kitobga qiziqtirish orqali axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi shakllanib boradi, o'z fikriga ega bo'ladi, jamoa bilan ishlashga harakat qiladi. O'quvchilarni badiiy asarlar orqali o'qitishda quyidagi metodlardan samarali foydalanish mumkin:

Interfaol metodlardan munozara, "aqliy hujum", "klister" usuli orqali o'quvchilarni faol fikrlashga jalb etadi. Masalan: 3-sinf O'qish savodxonligi darsligidagi 5-6-sahifadagi "Tabiat zanjiri" rivoyatini shu usul orqali o'tilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Rol o'ynash usulida asar qahramonlarini sahnalashtirish orqali o'quvchilarning his-tuyg'ulari shakllanadi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi, nutqi boyiydi, idrok qilishga harakat qiladi. Tahliliy o'qish orqali matnni chuqur tahlil qilish, obrazlar va g'oyalarni ochib beradi, tasavvuri orqali yangi obraz yaratadi, kundalik hayotga ham sekinlik bilan qo'llab ko'rishga harakat qiladi. O'quvchilar mustaqil ravishda asar asosida loyiha tayyorlaydi (prezentatsiya, esse, video va boshqalar). Bu esa axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga olib keladi.

Badiiy asarlarga bo'lgan qiziqishni oshirish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini quyidagi natijalarga olib kelishi mumkin:

- o'quvchilarning kitobxonlik madaniyati oshadi;
- milliy qadriyatlarga hurmat shakllanadi;
- mustaqil fikrlash rivojlanadi;
- estetik did va tafakkur kengayadi;
- yangi axborotlar izlashga harakat qiladi;
- taqqoslash va tanqid qilishga olib keladi;
- kasbiy bilim hosil bo'ladi;
- bilish jarayonlari kengayadi.

Bu esa o'z navbatida barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.[3.14].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida kompetensiyaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarni rivojlantirishda badiiy asarlarni o'qitish samarali vosita hisoblanadi. Shu bois, o'qitish darslarini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash hamda ularning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son.
 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2025.26.12.
 3. O'.Tolipov, D.I.Ro'ziyeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat T "Innovatsiya-Ziyo" nashriyoti 2019 y.
 4. Уралов, А. Б., & Бердалиева, С. Х. (2020). МОРФЕМАЛАР ТИЗИМИДА АГГЛЮТИНАЦИЯ ВА ФУЗИЯ МУНОСАБАТИ. Интернаука, (20-4), 81-82.
 5. Уралов, А. Б., & Умарова, Б. Х. (2020). ТУРКИЙ ТИЛЛАРДА МОРФЕМАЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ. Интернаука, (20-4), 77-78.
- Uralov, A. B. (2018). COMPREHENSIVE AND EXTENDED FORMS OF SUFFIXES IN UZBEK LANGUAGE. Theoretical & Applied Science, (12), 127-131.